

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori
X.B. Yunusov

2024 yil “02” 08

PARRANDACHILIK XO'JALIKLARIDA VETERINARIYA
SANITARIYA ISHI ASOSLARI

FANINING O'QUV DASTURI

- | | | |
|------------------------|----------|--|
| Bilim sohasi: | 800000 | - Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya |
| Ta'lim sohasi: | 840000 | - Veterinariya |
| Mutaxassislik : | 70840110 | - Parranda kasalliklari |

Fan /modul kodi PXVSIA 1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS-Kreditlar 6	
Fan /modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari	90	90	180	
2.	I. Fanning mazmuni				
	<p>Ushbu fan dasturda Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarini mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, Respublikamizda veterinariya sanitariya tadbirlarining tashkiliy asoslari, veterinarlik kasbiga malakaviy va axloqiy talablarga keng o'rin ajratilgan. "Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari" fani dasturi magistrlar uchun zarur bo'lgan yuqumli va invazion kasalliklarining, shu jumladan antropozoonoz kasalliklarning profilaktikasi, yuqori sifatli parrandachilikka mansub mahsulotlar, xom ashyo va ozuqalar olish yo'llari va barcha tekshirish uslublarini mujassamlashtirgan. Fanning tarixi va rivojlanish tendensiyasi, istiqboli hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarning natijalari dasturda o'z o'rnini topgan.</p> <p>Fanning vazifasi -parrandalarning yuqumli va invazion kasalliklarining oldini olish va tashqi muhitda kasalliklar qo'zg'atuvchilarining o'choqlarini tugatish;</p> <ul style="list-style-type: none">- xo'jalikda yuqori sanitariya sifatiga ega bo'lgan parrandachilik mahsulotlarini olinishiga barqarorlikni ta'minlash;- tabiatda patogen, shartli patogen mikroflora va kimyoviy vositalar to'planishidan himoya qilishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish;- parrandachilik, parranda go'shtini qayta ishlash, xom ashyo korxonalari dezinfeksiya yuvish stansiyalari va punktlarini (temiryo'l, havo kemalari va avtomobil to'xtash joylarida) binolarini loyihalashtirish va qurilishini amalga oshirish bo'yicha veterinariya – sanitariya talablarini ishlab chiqish.- fan bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.				
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)				
	II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:				
	1-mavzu. Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari fani va uning rivojlanish tarixi				
	<p>"Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari" fanining mazmuni, maqsadi, vazifasi va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Fanning rivojlanish tarixi. Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlarining tadqiqot ob'yektlari</p>				

SamDVMCHBU "Parranda, baliq, asalari va mo'yнали hayvonlar kasalliklari" kafedrasidotsenti, vet.f.n. Sh.N.Nasimov tomonidan
"Parrandachilikxo'jaliklaridaveterinariyasantitariyaishi asoslari" fanidan
tayyorlangan fan dasturiga

TAQRIZ

Fan dasturi 70840110-Parranda kasalliklari mutaxassisligi magistratura talabalari uchun "Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari" fanidan tayyorlangan bo'lib, uning tarkibida o'quv fanining dolzarbligi va o'rni, o'quv fanining maqsad va vazifalari, asosiy nazariy qismi ma'ruza mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim, asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ro'yxati ko'rsatilgan.


Dasturning asosiy qismida fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni, magistr talabalarda parrandachilik sohasining rivojlanishi, parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya holatining joriy etilishi, parrandachilik xo'jaliklarida parrandalarni saqlash, oziqlantirish sharoitlarining talab darajasida ekanligini amaliyot va fan bilan chambarchas bog'lagan holda dastur tayyorlangan. Parrandalarda uchraydigan yuqumsiz, infeksiya, parazitlar kasalliklarni kerkli metodlar yordamida laboratoriya tekshiruvlari asosida tashxis qo'yish va kerkli dorilardan foydalanilgan holda davolash ishlarini tashkil qilish ko'nikma va malakani magistrantlarga o'rgatishdan iborat.

Fan dasturining asosiy qismida parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari fanning nazariy mashg'ulotlar mazmuni, predmeti va o'rni, parrandalarda uchraydigan kasalliklarni diagnostikasi, davolash va oldini olishnig zamonaviy usullari hamda mustaqil ishni tashkil etishning shakli, mazmuni bayon etilgan.

Ushbu "Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari" fani bo'yicha tuzilgan fan dasturi DTS talablariga javob beradi deb hisoblayman va chop etishga tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Biokimyo instituti direktori
o'rinbosari, b.f.f.d.(PhD)

tasdiqlayman
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU xodimlar bo'limi boshlig'i



SamDVMCHBU "Parranda, baliq, asalari va mo'ynali hayvonlar kasalliklari"
kafedrası dotsenti, vet.f.n. Sh.N.Nasimov tomonidan "Parrandachilik
xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari" fanidan tayyorlangan fan
dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi 70840110-Parranda kasalliklari mutaxassisligi magistratura talabalari uchun "Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari" fanidan tayyorlangan bo'lib, uning tarkibida o'quv fanining dolzarbligi va o'zni, o'quv fanining maqsad va vazifalari, asosiy nazariy qismi ma'ruza mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim, asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ro'yxati ko'rsatilgan.

"Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari" fanining asosiy maqsadi parrandachilik xo'jaliklarida sanitariya talablarining bajarilishi, parrandachilik xo'jaliklarining tarkibiy tuzilishi, parrandalarga beriladigan oziqalarning tarkibi, parrandalarda uchraydigan kasalliklar, parrandalaning zotlari, tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning saqlash va boqish talablari hamda go'sht yo'nalishidagi parrandalarga qo'yilgan davlat standartlari haqidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.


Dasturda fanning vazifalari aniq ko'rsatilgan bo'lib, unda fan bo'yicha magistrning bilimiga, uquvi ko'nikmalariga Davlat ta'lim standartlariga mos keladigan talablar qo'yilgan. Dastur asosiy qismiga, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ish uchun ko'rsatmalarga, amaliyot uchun qo'llanmaga ega bo'lib, fanni o'rganishda zarur bo'lgan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxatiga ega.

Ushbu "Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari" fani bo'yicha tuzilgan fan dasturi DTS talablariga javob beradi deb hisoblayman va chop etishga tavsiya etaman.

Qayd etilganlarni inobatga olib tayyorlangan fan dasturi "Ta'lim to'g'risida" gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturini ijro etish talablariga va ilmiy hamda uslubiy jihatdan magistratura talablariga mos kelishini takidlagan holda chop etish uchun tavsiya etaman.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti
"Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya"
kafedrası dotsenti, b.f.n.

A.M. Vaxidova



2-mavzu. Parrandachilik xo'jaliklarini patogen va shartli patogen mikroorganizmlar bilan ifloslanishi

Yuqumli kasalliklarning uzatuvchi (tashuvchi) omillar, patogen mikroorganizmlarning tashqi muhitda yuqori chidamli va chidamliligi past bo'lgan guruhlarini o'rganishning ahamiyati. Yuqumli va invazion kasalliklar qo'zg'atuvchilarining tarqalish yo'llarining xilma-xilligi.

Tashqi muhitda eng ko'p uchrab turadigan parrandalarning yuqumli kasalliklarining qo'zg'atuvchilarini tahlili. Mikroob tashuvchanlik va uning oqibatida tashqi muhitga mikroorganizmlarni tarqalishining xo'jalikning veterinariya - sanitariya holatiga ta'siri

3-mavzu. Parrandachilik ob'yektlarini zararsizlantirish uchun dezinfektsiyalovchi vositalar

Tashqi muhitning sanatsiya qilishda kimyoviy, fizik va biologik dezinfektsiya vositalarining qo'llanilishi.

Kimyoviy dezinfektsiya vositalar: ishqorlar, kislotalar, xlorfaol preparatlar va boshqa guruhlarining mikroorganizmlar xujayrasiga ta'siri, bakterisid va bakteriostatik ta'sirlarni ahamiyati.

Kimyoviy vositalar eritmalarining konsentratsiyasi, harorati va ekspozitsiyasi vaqtining ularning kuchiga ta'siri, kimyoviy dezinfektsiya vositalari ta'sirida mikroob xujayrasida kechadigan jarayonlarni tushunishni nazariy va amaliy ahamiyati.

Dezinfektsiya vositalariga qo'yiladigan talablar, fizik va biologik dezinfektsiyalashning ahamiyati

4-mavzu. Parrandachilik xo'jaliklarida ishlatiladigan veterinariya sanitariya texnikalari

Dezinfektsion texnikalarga qo'yiladigan eng asosiy talablar.

Aerozol yo'li bilan dezinfektsiyalash uchun maxsus dezinfektsiya mashinalari va apparatlarining ishlash prinsipi va qo'llanilishi. Maxsus avtomashinalar yordamida otkaziladigan tadbirlarning turlari va ular bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari.

Hayvonlar teri qoplamasiga ishlov beruvchi apparatlarning ishlash prinsipi va qo'llanilishi.

Dezinfektsion kameralarning ishlash prinsipi va qo'llanilishi.

5-mavzu. Parrandachilik komplekslari va boshqa fermalarni dezinfektsiyasi

Dezinfektsiya ta'limotining mohiyati. Dezinfektsiya (zararsizlantirish)ni yuqumsizlashtirishdan va sterillashdan farqlash.

Dezinfektsiya o'tkazish uchun dastlabki tayyorgarlik bosqichi hisoblangan mexanik tozalashning ahamiyati. Dezinfektsiya vositalarini eritmalar yoki aerrozollar holatida qo'llashning afzalliklari.

Profilaktik dezinfektsiyani o'tkazish tartibi va muddatlari. Majburiy dezinfektsiyaning turlari, o'tkazish tartibi va muddatlari.

Past haroratda dezinfektsiyalashning o'ziga xos jihatlari. Dezinfektsiya sifatini baholash. Veterinariya sanitariya o'tkazgichlarini tashkil etish.

<p>6-mavzu . Parrandachilik fermalarida bo‘g‘imoyoqlilar va gelmintlarga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari</p> <p>Chivinlar tomonidan tarqatiladigan parrandalarning yuqumli va invazion kasalliklar, chivinlarga qarshi kurash profilaktik (asosiy) va qiruvchi (yordamchi) usullari.</p> <p>Parranda kanallari tomonidan tarqatiladigan yuqumli va invazion kasalliklar hamda bu kanallarga qarshi kurashish usullari, qo‘llaniladigan dezinfeksiya vositalari.</p> <p>Patxo‘rlar - parrandalar parazitlariga qarshi qo‘llaniladigan dezinfeksiya vositalari.</p> <p>To‘shak qandalasi –odam hayvon va parrandalarda parazitlik qiluvchi qon so‘ruvchi hashoratlarga qarshi qo‘llaniladigan dezinfeksiya vositalari.</p> <p>Koksidioz va gelmintozlarga qarshi molxonalarning fizikaviy va kimyoviy usullarda dezinvasiya otkazish tartibi va uning ahamiyati.</p> <p>7-mavzu. Kemiruvchilarga qarshi kurash chora tadbirlari</p> <p>Parrandachilikka kemiruvchilar keltiradigan iqtisodiy zarar, kemiruvchilar tomonidan tarqatiladigan yuqumli va invazion kasalliklar.</p> <p>Profilaktika kurash choralarini tashkil etish, o‘tkazish tartibi va ahamiyati.</p> <p>Yo‘q qilish (deratizatsiya) tadbirlarini tashkil etish, o‘tkazish tartibi va ahamiyati.</p> <p>Kemiruvchilarni yo‘q qilish uchun kurashda kimyoviy vositalar, bakterial preparatlar, mexanik ovlash qurollari, shuningdek, kemiruvchilarning tabiiy dushmanlarini qo‘llash usullari. Zaharli xo‘raklar, ularni qo‘llash, ishlatilishi, sarfini nazorat qilish va hisobdan chiqarish.</p> <p>Bakterial preparatlar bilan derazitatsiya o‘tkazishning mohiati va samaradorligi.</p> <p>8-mavzu. Parranda go‘shini qayta ishlash korxonalari, so‘yish punktlarinining veterinariya sanitariyasi</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Qishloq ba suv xo‘jaligi vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2006 yil 13 iyuldagi 6/1 va 5 sonli qarori bilan tasdiqlangan “Maxsus so‘yish korxonalari va maydonlarida chorva mollari so‘yish bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga ruxsat guvohnomalar berish va ro‘yxatga olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari</p> <p>Parranda so‘yish sexida bo‘lishi shart asosiy va yordamchi binolar, ularni yuvish va dezinfeksiyalash tartibi. Parranda go‘shini qayta ishlash korxonalarida dezinfeksiyalash.</p> <p>Sovutkichlarda mog‘or zamburug‘lariga qarshi kurashda ishlatiladigan kimyoviy va fizikaviy dezinfeksiya vositalari.</p> <p>Junxo‘r (vetchinniy kojeed) qo‘ng‘iziga qarshi kurashda qo‘llaniladigan dezinfeksiya vositalari.</p> <p>9-mavzu. Parrandachilik chiqindilari bilan ishlashda veterinariya sanitariya chora tadbirlari</p> <p>Parrandachilik chiqindilarining turlari va ular orqali tarqaladigan yuqumli</p>
--

	<p>Axborot manbaalari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.ziyonet.uz. 2. www.vetjurnal.uz 3. www. lex.uz 4. www.veterinariy.actavis 5 . www. Kodes .ru
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2 -avgustdagi "12-sonli bayoni bilan ma’qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ul:</p> <p>Sh.N.Nasimov– SamDVMCHBU, “Parranda, baliq, asalari va mo‘ynali hayvonlar kasalliklari ” kafedrasida dotsenti, v.f.n.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Otakulov B.N- Sharof Rashidov nomidagi Samargand davlat universiteti Biokimyo instituti direktor o‘rinbosari, b.f.f.d.(PhD).</p> <p>Vaxidova A.M. - Samarqand davlat tibbiyot universiteti “Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya” kafedrasida dotsenti, b.f.n.</p>

	asoslarini, iqtisodiy rivojlanish qonunlari, asosiy tushunchalar, iqtisodiy jarayonlarning xususiyatlarini bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)
	<ul style="list-style-type: none"> • talaba Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)
4.	<p>V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakillarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Davlatov R.B., Salimov X.S., Xudjamshukurov A.N. "Parrandalar kasalliklari" fanidan amaliy laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha o'quv qo'llanma. "Zarafshon". Samarqand, 2018 yil. 2. Бакулин И.А.Болезни птиц.Учебник.Санкт-Петербург, 2006 год. 3. Бессаробов Б.Ф.и др. "Болезни птиц", Учебное пособие. Масква, Издательство, "Лан" 2007 год. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet. 5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet. 6 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet. 7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni. 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori. 9.David E.Swane, John R.Gliss, Larry R, McDougald, Lisa K. Nolan, David L. Suarez, Venugopal L.Nair, Diseases of poultry.Wiley-Blackwell; 13 edition, USA,2013 year.

	kasalliklar haqida tushuncha. Go'sht-suyak uni zavodida hom ashyoni tayyorlash va nazorati.Go'sht – suyak unini ishlab chiqarishga bo'lgan veterinariya – sanitariya talablari.
	<p>Parrandachilik chiqindilarini va parrandalar jasadlarini go'sht-suyak uni ishlab chiqarish zavodlarida qayta ishlash yo'li bilan zararsizlantirish. Go'sht-suyak uni zavodida ishlatiladigan dezinfeksion vositalar.</p> <p>Parrandalarjasadlarini yoqib yuborish usullari. Bekker quduqlarining qurilishiga bo'lgan veterinariya –sanitariya talablari, parrandalar jasadlarini maxsus quduqlarda biotermik zararsizlantirish tartibi va uning ahamiyati.</p>
	<p>10-mavzu. Transportda veterinariya – sanitariyasi</p> <p>Temiryo'l, suv, avtomobil va havo transportlari orqali parrandalar, parranda go'shti, tuxum, parrandachilikga mansub hom ashyolar, shuningdek, chetdan keltirilayotgan chorva yuklarini tashishni tashkil etish. Temiryo'l, suv, avtomobil va havo transportlarida dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari.</p> <p>Chegara va transportda davlat veterinariya nazorati punktlarining ishini tashkil etish, veterinariya nazorati ostidagi yuklarni tashishda tegishli veterinariya hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi.Transport vositalarini veterinariya – sanitariya baholash.</p> <p>Temir yo'lda vagonlarni dezinfeksiyalash uchun dezinfeksiya yuvish punkti (DPP) va dezinfeksiya yuvish – stansiyalari (DPS) tashkil etilishi.</p>
	<p>11-mavzu. Parrandachilikka mansub xom ashyolarni olish va qayta ishlashning veterinariya - sanitariyasi</p> <p>Parrandachilikka mansub xom ashyoni qayta ishlash sanoatida veterinariya – sanitariya xizmati ko'rsatish va nazoratining ob'ektlari.</p> <p>Parrandachilikka mansub xom ashyoni tayyorlash, saqlanishi, transportda tashish va ishlov berishni tashkil etish.</p> <p>Xom ashyoni saqlash va birlamchi qayta ishlash korxonasi tarkibidagi bo'lim va xonalar haqida tushuncha. Pat va parlarni etilen oksidining metil bromid bilan aralashmasi (OKEMB), formaldegid va suv bug'i bilan dezinfeksiyalash tartibi. Parrandalar pat va parlarini dezinfeksiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.</p>
	<p>12-mavzu. Tuproqning veterinariya - sanitariyasi.</p> <p>Tuproqda har xil turdagi tirik mikroorganizmlar haqida tushuncha. Tuproqni zararsizlantirish.Tuproqni turli chuqurliklarda dezinfeksiyalash. Tuproqni dezinfeksiyalashda qo'llaniladigan kimyoviy vositalar. Tuberkulyez bilan kasallangan hayvonlar turgan joylardagi tuproqni dezinfeksiyalash tartibi.</p> <p>Insonlarning tabiatni o'zgartirishga bo'lgan faol harakatlarining (tuproqqa o'g'itlar solish, sug'orish, quritish) mikroblar biotsenozini o'zgartirishdagi o'rni.</p>
	<p>13-mavzu. Go'ngni zararsizlantirish</p> <p>Go'ngning qimmatli o'g'it sifatidagi ahamiyati. Suyuq, yarim suyuq va qattiq go'ng haqida tushuncha.</p> <p>Go'ng tarkibida topiladigan yuqumli va invasion kasalliklar qo'zg'atuvchilari va ularning saqlanish muddatlari to'g'risida ma'lumot. Go'ngni tozalash inshootlarida zararsizlantirish, go'ngni idishlarda uzoq saqlash yo'li bilan</p>

	<p>zararsizlantirish, gomogenlashni qo'llash va kimyoviy vositalar bilan dezinfektsiyalash, radioaktiv kobalt bilan zararsizlantirish, bug' oqimini yuborish usullarining mohiyati. Suyuq go'ngni zararsizlantirishning boshqa usullari.</p> <p>Go'ngni biotermik zararsizlantirish usuli, zararsizlantirish texnikasi va saqlanish muddatlari.</p> <p>14-mavzu. Suv ta'minoti manbalarining gigiyena va sanitariyasi. Sanoat korxonalarining oqova suvlarini zararsizlantirish</p> <p>Suv kasallik qo'zg'atuvchilarini uzatuvchi omil sifatida. Autoxton va alloxton guruh mikroorganizmlar haqida tushuncha. Suv havzalarini qo'riqlash. Suvni xlorlash usul bilan zararsizlantirish, biologik zararlantirish. Parranda so'yish sexlarida shartli toza va ifloslangan oqova suvlarni zararsizlantirish usullari. Suv havzalarini sanitariya himoyalash. Dezinfeksiya yuvish stansiyalarida vagonlarning oqova suvlarni zararsizlantirish usullari. Oqova suvlarining dezinfektsiyasi</p> <p>15-mavzu. Jo'jalarni parvarishlash sexida veterinariya sanitariya tadbirlari</p> <p>Yosh jo'jalarni parvarishlash sexida zoogigiyenik parametrlarni bajarilishiga ularni saqlash normativlariga va profilaktik hamda veterinariya sanitariya tadbirlarining bajarilishi</p> <p>III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</p> <p>III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Veterinariya-sanitariya tadbirlarini bajarishda texnika xavfsizligi va ishlab chiqarishda shaxsiy gigiyena qoidalari. 2. Dezinfeksiya vositalarining tarkibi va ulardagi faol moddalarni aniqlash 3. Veterinariya-sanitariya texnikalari bilan ishlash qoidalari 4. Dezinfeksiya o'tkazish va uning sifatini aniqlash. Veterinariya-sanitariya o't kazgichining jihozlanishi 5. Chivinlar, ektoparazitlar va gelmintlarga qarshi kurash vositalarining veterinariya amaliyotida qo'llanilishi 6. Kemiruvchilarga qarshi zaharli xo'raklarni tayyorlash, deratizatsiya vositalarini qo'llashda ishlash qoidalari. 7. Parranda go'shtini qayta ishlash korxonalarida dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazishda ishlash qoidalari. 8. Parrandachilik chiqindilarini qayta ishlash korxonalarida dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazishda ishlash qoidalari 9. Transport vositalarini veterinariya-sanitariya baholashi, ularni zararsizlantirish va dezinfektsiyalash tadbirlarini o'tkazishda ishlash qoidalari. 10. Parrandachilik xom ashyolarini tekshirish va dezinfektsiyalash usullari. 11. Parrandalarning yuqumli kasalliklariga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari o'tkazish 12. Parrandalarning yuqumli kasalliklariga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari
--	--

	<p>o'tkazish</p> <ol style="list-style-type: none"> 13. Go'ng tarkibidagi mikroorganizmlar haqida tushuncha, go'ngni biotermik zararsizlantirish. 14. Sanoat korxonalarining oqova suvlarini tozalash va zararsizlantirish usullari. 15. Parrandachilik ob'yektlarida havoni zararsizlantirish 16. Veterinariya nazorati ostidagi yuklarni eksport qilishga qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablari 17. Veterinariya nazorati ostidagi yuklarni import qilishga qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablari. <p>Amaliy mashg'ulotlar zarur asbob uskunalar bilan jihozlangan laboratoriya xonasida va auditoriyada bir guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Yuqumli laringotraxeit kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari 2. Mareka kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari 3. Gamboro kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari 4. Veterinariya dezinfektsiyasini o'rganishda eksperimentlar o'tkazish. 5. Aerosol holatidagi biologik ob'yektlarni tekshirish. 6. Yuqumli bronxit kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari 7. Gripp kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari 8. Inkubatsion tuxumlarning dezinfektsiyasi 9. Inkubatoriyada veterinariya sanitariya tadbirlari 10. Yem ishlab chiqarish sexlarida veterinariya sanitariya tadbirlari 11. Eymerioz (koksidioz) kasalligiga qarshi veterinariya sanitariya tadbirlari 12. Veterinariya nazorati ostidagi yuklarni eksport qilish qoidalari. 13. Veterinariya nazorati ostidagi yuklarni import qilish qoidalari. 14. Kurkalarining virusli hepatitini oldini olish chora tadbirlari 15. O'rdak va g'ozlarda virusli hepatit va enteritni oldini olish chora tadbirlari <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha magistrantlar tomonidan fan bo'yicha internet ma'lumotlarini to'plash, ularni o'rganish, o'quv adabiyotlari yordamida referat tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p>IV. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari tushunchasi, asoslari, iqtisodiy rivojlanish omillari, iqtisodiy rivojlanish nazariyalari haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya ishi asoslari nazariyalari